



## “GO‘RO‘G‘LI” TURKUM DOSTONLARI QIYOSIY TAHLILI

**Abdullayev Xotamjon Xamrayevich,**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI*  
*o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi*  
*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari sirasiga kiruvchi “Rayhon Arab” va “Avazxon” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq folkloridagi versiyalari o‘rtasida qiyosiy aspektida o‘rganildi. Dostonlarning versiyasidagi obrazlar tizimi hamda sujet va motivlari tadqiqot predmeti sifatida tanlab olindi.

**Kalit so‘zlar:** doston, “Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Rayhon Arab” dostoni, “Avazxon” dostoni, sujet, motiv, obraz, obrazlar tizimi, baxshi, versiya, variant.

**Аннотация:** В данной статье в сравнительном аспекте изучены узбекский и каракалпакский фольклорные варианты эпоса «Райхон Араб» и «Авазхан», входящие в былины серии «Гёрголы». В качестве предметов исследования были выбраны образная система и сюжеты и мотивы в вариантах эпоса.

**Ключевые слова:** эпос, серия «Гёрголы», эпос «Райхон Араб», эпос «Авазхан», сюжет, мотив, образ, система образов, вариант, вариант..

**Annotation:** In this article, the Uzbek and Karakalpak folklore versions of the epics "Rayhon Arab" and "Avazkhan", which are part of the epics of the "Gorogli" series, were studied in a comparative aspect. The system of images and subjects and motifs in the versions of the epics were selected as research subjects.

**Key words:** epic, "Gorogli" series, "Rayhon Arab" epic, "Avazkhan" epic, subject, motif, image, system of images, version, variant.

### KIRISH.

Yurtimizda keyingi yetti, sakkiz yil davomida juda katta, misli ko‘rilmagan xalq orzu-istagidagidek islohotlar amalga oshirilmoqda. Orzu-istiklar ro‘yobga chiqayotgan bugungi zamonda epos va dostonlarni yangicha nazar bilan mutolaa qilishga, imkoniyatlar yaratildi. Chunki, epik matn va tafakkur qa’rida insoniyatning ibtidoiy o‘tmishi, e’tiqod va premitiv ong sajiyasi, turmush tarzi, mifopoetik tafakkurning paydo bo‘lishi va genezisi, shuningdek, urug‘, qavm, millat, elat va xalqlarning shakllanish tarixi bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar yashiringan. Bugungi ilmiy va estetik tafakkur doston janriga tamomila yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining mushtarak namunalaridan biri bu “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridir. Ushbu dostonning o‘zbek, turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, qozoq xalqlarida ham o‘ziga xos versiyalari bo‘lib, baxshilari tomonidan asrlar davomida kuylab kelinmoqda. Maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Go‘ro‘g‘lining dunyoga kelishi” (Xorazm varianti), “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” (o‘zbekcha varianti), “Avazxon”, “Rayxon arab” dostonlaridagi motiv va sujetlarni, sujetlarning qatlama halqalarini, obraz va personajlarning romantik, realistik va mifologik tabiatini, badiiy epik nutqning uslubiy o‘ziga xosliklarini tahlilga tortdik.



## METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Ma'lumki, dostonlarni tadqiq qilishda ularning paydo bo'lishi, yaratilishidagi motiv va sujetlardan so'ng obrazlari, obraz turlari va ularning genezisi, doston poetikasidagi epik va estetik vazifalari singari muammolarni yoritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur doston variantlaridagi obraz va qahramonlar asosan, bir xil vazifa bajarsalarda, ya'ni ijobjiy obrazlar ezgulikka, salbiy obrazlar yozuvlikka xizmat qilsalarda, odatda, ularning faoliyati janr talabiga ko'ra turlicha qamrovda va miqyosda namoyon bo'ladi. Avvalo, har ikkala variantida obrazlar an'anaga ko'ra bosh qahramon taqdiri bilan bog'liq. Ijobjiy va salbiy guruuhlar hamda yordamchi obrazlarga bo'linadi. Mazkur dostonlar o'zbek va turkiy folklorda olimlar tomonidan tadqiqot obyekti bo'lgan bo'lsa-da<sup>1</sup>, aynan "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Avazxon", "Rayxon arab" dostonlarining o'zbekcha va qoraqalpoqcha versiyalari hamda variantlari qiyosiy aspektida o'rganilmagan. Ayniqsa, qoraqalpoqcha va o'zbekcha matnlardagi motiv va sujetlar, obrazlar, til va uslub xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo, bu sohada V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Murodov, M.Saidov, T.Mirzayev, J.Xaliquulov, T.Haydarov, Sh.Turdimov, S.Sariev, M.Seyidov va B.A.Karrievlarning monografik tadqiqotlari folklorshunoslikda katta ahamiyatga ega. Mazkur folklorshunoslardan ozarbayjonlik olim M.Seyidovning "Ozarbayjon mifik tafakkurining asoslari", M.Murodovning "Go'ro'g'li" dostonlarining janriy va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari", Sh.Turdimovning "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari" nomli tadqiqotlarini Go'ro'g'lishunoslikning fundamental manbalarini, desak bo'ladi.

## TADQIQOT NATIJALARI.

"Rayhon Arab" dostonining ikkata(o'zbekcha va qoraqalpoqcha) versiyasi sujet xalqalari o'zaro qiyoslab o'rganilishi natijasida sujetlarning bir-birini mutlaqo takrorlamasligi ayon bo'ldi. Qiz olib qochish motivi ikkala dostonni o'zaro bog'lovchi yagona atribut, xolos. Qoraqalpoqcha variantda voqealar mutlaqo boshqacha joy va makonda sodir bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, voqelik ancha real, obyektiv makonlarda kechadi. Tasodifiy, g'ayritabiyy va mifopoetik tasvirlar uchramaydi. Hatto, Go'ro'g'lining o'zi ham oti ham "alp"lik, "tanlangan"lik maqomida ta'rif-tavsif etilmaydi. O'zbekcha variantida esa buning aksi sifatida voqealar aniq makonlarda, Asqar tog'idagi Eran va chiltonlar vodiysida, Hazar dengezida, Arab yurtida, Chambilda bo'lib o'tadi. Qoraqalpoqcha variantida Go'ro'g'li Gurjistonlik Lake podshoning qizi Gulruhjonne olib kelsa, o'zbekcha

1. <sup>1</sup>Ayimbetov Q. Xalq danalig'i. –Nokis, 1988.
2. Zarifov H.T. O'zbek sovet folklori masalalari. –T., Fan, 1970.
3. Ro'zimboev S. "Go'ro'g'li" eposining Xorazm versiyasi haqida. II O'TA., 1989
4. Карриев Б. Эпические сказания о Короглы у тюркоязычных народов. – М. Наука, 1968.
5. Sariev S. "Go'ro'g'li" dostonlari qo'lyozma nuxalarining qadimiy ildizlari. Filologik tad.-1. Urganch, 2006.



variantida arab yurtining shohi Rayhon arabning qizi Zaydinoy(Zaydin arab)ni olib qochib keladi. Doston motivining debochasida prolog keltiriladi. Mana shu prologda turkum dostonlarining sujet voqeligini o‘zaro bog‘laydigan motivlar she’riy matnda retrospektiv ifoda etiladi. Go‘ro‘g‘li hali yosh bola davrida Rayhon arab yigitlari bilan kelib tog‘asi Ahmad Sardorning yosh juvon xotinini o‘g‘rilab ketgan edi. Aslida, Go‘ro‘g‘li va Rayhon arab o‘rtasidagi ziddiyat(konflikt) shunday kelib chiqqan edi. Albatta, dushmanidan o‘ch olish, el or-nomusini himoya qilish “tanlangan”larga xos xususiyat, burch hisoblanadi. Demak, mazkur variantda Go‘ro‘g‘lining Rayhon Arabning qizini olib kelishiga arzirli sabab bor. Ya’ni, bu joyda sabab oqibatni yuzaga keltirgan. Eposning o‘zbekcha variantida xarakterlar tasviri ustunlik qilsa, qoraqalpoqcha variantida voqelik tasviri ijroda muhim o‘rin tutgani ko‘rinib turadi. Qoraqalpoqcha variantida Arab rayhon podsho emas, balki, Gurjiston elining shohi Lakening pahlavoni tarzida tasvirlanadi. Uning nomi(ismi) Arab rayhon bo‘lsa ham, Gurjistonlik bo‘lib doston voqeligining qahramonlaridan biri hisoblanadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridan bo‘lgan “Avazxon” o‘zbek va qoraqalpoq baxshilari tomonidan ham sevib ijro etilgan. Allayar Sadimov tomonidan kuylangan “Awezzan” dostoni variantlari qoraqalpoq baxshilari repertuarlaridan o‘rin olgan eposlardan biri hisoblanadi. Mazkur variantni K.Satullaev baxshi Allayar Sadimovdan yozib olgan.

Ushbu qoraqalpoqcha variantida Chamlibelning podsholari Aqliqxon va Jig‘alixon nomlari, Go‘ro‘g‘lining o‘ttiz yoshga kelganda Xizr ilyos va o‘n ikki imomdan uchta tilak tilib fotiha olishi, qirq yoshiga kelganda Chamlibelga katta qal‘a qurishi, odam zotidan to‘qqizta, parilardan uchta xotin olishi, Ko‘hiqofdan Og‘a Yunus parini, Hindistondan Misqol parini, Eram bog‘idan Gulnahor parilarni olib kelishi, Go‘ro‘g‘lining yuz yoshga kelganda Isfaxondan Qaldarning o‘g‘li Hasanxonni olib kelishi, Xunxor shohdan Bulduruq qassobning o‘g‘li Avazxonni olib kelishi voqealari prolog shaklida bayon qilingan. Dostonning asosiy voqealari Go‘ro‘g‘lining bir yuz o‘n bir yoshga to‘lishi, parilar aytishiga ko‘ra o‘limiga to‘qqiz yil qolgan. Go‘ro‘g‘li Hasanxon bilan Avazxonni saqlab olgan bo‘lsada, ularni farzand o‘rnida ko‘rmay, farzandsizligidan nolib, parilarni yoniga chorlab, ularga murojaat qilib turgan voqeadan boshlanadi. Dostonda Avazxonning Xunxordan olib kelinishi voqealari tasvirlanmay, balki, undan keyingi voqelik sujet markazida bo‘ladi. O‘zbekcha variantida esa aynan, Avazxonning Xunxordan olib kelinishi voqealari sujet silsilasini hosil qilgan. Demak, doston variantlaridagi sujet voqeligi turlicha bo‘lsada, epos nomlari ikkala versiyada ham “Avazxon” nomi bilan atalgan.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida konflikt Chambil va Xunxor, Chambil va Arab yurti o‘rtasida sodir bo‘ladi. Bu konflikt Chambilga Go‘ro‘g‘li sulton bo‘lmasidan



oldin yuz bergen bo‘lib, qahramon endi alp bo‘lib, el-yurt or-nomusi uchun kurashuvchi, vatanparvar obraz sifatida gavdalanadi. Ya’ni ota-bobolarining, urug‘dosh-vatandoshlarining qasdini olish, ularni himoya qilish Go‘ro‘g‘lining zimmasiga tushadi. Mana shu sujet liniyasi doston turkumlarining barcha versiya va variantlari bo‘ylab qizil chiziq bo‘lib tortilgan. Dostonning qoraqalpoqcha variantida matn boshida keltirilgan Go‘ro‘g‘lining parilarni yoniga chaqirib, “yo‘qlov” ayttirishi, parilarning Go‘ro‘g‘lini befarzand deya “yo‘qlov” aytishi, Hasanxon va Avazxonning xafa bo‘lishi, Avazxonning sharob to‘la kosani qo‘lidan tushurib yuborib gunohkor bo‘lishi, Avazxonning o‘rdak ovlash uchun Havdek ko‘liga borishi, ko‘ldan o‘rdaklarni ovlab, chilimning xumori tutib u yoq, bu yoqqa alanglab turib bir tepalikni orqasida ikkita uyni ko‘rishi, birinchi uyda bir juvonni uchratishi, ikkinchi uyda bir go‘zal suluvni uchratishi, ulardan chilim so‘rashi, Avazxonning Go‘ro‘g‘lidan norozi bo‘lib, o‘z yurti Xunxorga qaytishi voqealari umumiyligi qizil chiziq vazifasini bajargan bosh sujetga bog‘liq bo‘lmasa-da, voqealarning mantiqiy oqimi natijasida tarmoq sujet sifatida hosil bo‘lgan, deb aytish mumkin. Doston matnidagi Avazxonning “chilim so‘rash”, “chilim chekish” motiviga nazar soladigan bo‘lsak, turkona axloq talabiga(mezoniga) muvofiq ayol kishidan chilim so‘rashi madaniy etikelarga nomutanosib tasvirlangan. Bundan tashqari Chamlibel musulmon yurt sifatida ta’riflanadi. Matndagi shunga o‘xshash tasvirlardan anglashiladi-ki, eposning bu variantini keyingi davrlarning mahsuli sifatida qarash mumkin.

Xunxorshoh bilan Avazxon o‘rtasidagi suhbatdan keyin podsho Avazxonni dorga osish uchun jallodlariga buyuradi. Aynan mana shu ziddiyat(konflikt)ning yuzaga kelishi, doston sujetini boshqa variantlari bilan bog‘laydi. Chunki, voqealar oqimi yana o‘z o‘zaniga tushib Go‘ro‘g‘li va Xunxorshoh o‘rtasidagi konfliktni voqelik markaziga olib chiqqan. Avazxonning Xunxorshohga javobida bo‘lajak “alp”ning yoki Chambilning kelajagi bo‘lgan yigitning mardona, biroz yovvoyi, ko‘ngil po‘rtanalarini ko‘ramiz. Voqealar rivoji davomida Avazxon xarakteri shakllanib, qahramonga xos tipiklashib boradi. Avazxon Xunxorshoh oldida o‘zini yo‘qotmadi. Dor oldiga borishdan, o‘limdan qo‘rqmadi. Voqeani eshitgan Avazxonning onasi Guloyim Xunxorshohdan farzandining gunohini so‘rab olib, jazoni o‘zgartirishni so‘raydi. Xunxorshoh Avazxonni qirq kunlik zindonga tashlab dinidan qaytarmoqchi bo‘ladi. Zindon voqeasidan keyin voqealar tasviri Chambilga ko‘chadi. Chambilda qirq yigit bilan sharob ichib hayotidan mamnun yurgan Go‘ro‘g‘li Avazxonning zindonband qilinganligini karvonboshidan eshitib, Gurjistonga yurish qiladi. Go‘ro‘g‘li Xunxorshoh yurtiga yetib kelgunicha podsho Avazni yana osib o‘ldirish uchun dor ostiga olib keladi. Qirq yigit bilan Go‘ro‘g‘li Xunxorshohning askarlari bilan jang qilib ularni yengadi. Xunxorshohni asir oladi. Podsho Go‘ro‘g‘liga tan berib, butun boyligining uchdan ikki qismini unga berib



o‘ziga bir bo‘lagini qoldirib, do‘s tutinib qahramonni Avazxon bilan birga Chambilga kuzatib qo‘yadi.

Dostonning qoraqalpoqcha variantidagi Go‘ro‘g‘lining Gurjistonga, Xunxorshohga yurish qilishi va Avazxonni qutqarib, dushmanni yengib zafar qozonishi voqeasi epos sujetining kulminatsion cho‘qqisi hisoblanadi. Mana shu voqeadan keyin Go‘ro‘g‘li Chambil eliga qaytib, Avazxonni Ahmad Sardorning qiziga uylantirib, Taka va Yovmut yurtini birlashtirib, birlashgan elga Avazxonni bosh qilib, o‘zi bir yuz yigirma yoshida olamdan o‘tadi. Doston sujeti man shu voqealar tasviri bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Mazkur voqelik doston sujetining yechimini tashkil etadi. Dostondagi qahramon va obrazlar ya’ni Go‘ro‘g‘lining o‘zi, G‘irot, parilar g‘ayritabiyy qudratga ega bo‘lsalar-da, voqelik davomida hech qanday mifologik xarakterdagi hodisalar sodir etishmaydi. Avazxonning gunohkor bo‘lishi, Havdek ko‘liga borishi, Ahmad Sardorning qizini sevib qolishi singari voqealar sujetining yanada qiziqarliligin ta‘minlagan. Avazxonning gunohkor bo‘lish motivi uning Havdek ko‘liga borish voqeasini keltirib chiqargan. Go‘ro‘g‘lining qirq yigit Avazxonga gunohini yuvish uchun Havdek ko‘lga borib to‘qqiz qator(juft) o‘rdak ovlab kelishni shart(sinov) qilib qo‘ygan edi. Uning Ahmad Sardor qizi bilan suhbat qurishi, sevib qolishi voqeasi doston sujetining nihoyasini ta‘minlagan, deb bemalol ayta olamiz. Chunki, epos yakunida Avazxon Bo‘tako‘zga uylanib, Taka va Yovmut ellarini birlashtirib yurtga sulton bo‘ladi. Epos sujetida sarguzashtlar, sinovlar, tasodifiy voqea-hodisalar tasviri uchramaydi. Shuning uchun ham dostonning qoraqalpoqcha varianti uslubini yozma adabiyot uslubiga yaqin, deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Doston qoraqalpoqcha variantining sujet dinamikasi sokin, osoyishta rivojlanib boradi. Faqat Xunxorshoh va Avazxon o‘rtasidagi o‘zaro dialog va monologlarda voqelik keskinlashib xarakter shakllanib tobora bo‘rtib, ko‘rinib borayotganligini his qilishimiz mumkin. Matn sujetining boshidan oxirigacha Avazxon obrazi epos qahramoni sifatida barcha voqeklarda faol ishtirok etadi. Yuqoridagi kuzatishlardan kelib chiqib, Avazxonning gunohkor bo‘lib, Havdek ko‘liga borishi, Ahmad Sardorning Bo‘tako‘z qizini yaxshi ko‘rib qolishi, Go‘ro‘g‘lidan norozi bo‘lib Xunxor yurtiga ketib qolishi, Xunxorshohni Avazxonni dorga osib o‘ldirmoqchi bo‘lishi, Go‘ro‘g‘lining Xunxorshohni yengishi, Chambilga qaytib Avazxonning Bo‘tako‘zga uylanishi, Taka va Yovmit eliga bosh bo‘lishi singari voqealar silsilasi sujet xalqalarini tashkil etgan. Dostonda Go‘ro‘g‘lining muammosi o‘g‘li Avazxonning ham muammosiga aylanib, konflikt mushtaraklik kasb etgan.

“Avazxon” dostonining o‘zbekcha varianti qoraqalpoqcha variantiga nisbatan ancha ko‘lamdorlikka ega. Bu variant ham qoraqalpoqchasi singari prolog bilan boshlangan. Ammo, prologlar bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, aynan takrori emas. Mazkur



doston sujeti ham sokin, tinch bir maromda boshlanadi. Eposga xos tasvir ya’ni Chambilga kelgan baxshining Avazxon ta’rifini keltirishi voqeasi bilan sujet harakatga keladi. Baxshidan Avazxonning ta’rif-tavsifini eshitgan Go‘ro‘g‘li Xunxor eliga yurish qilishni maqsad qilib, niyatini Hasanxon va qirq yigitiga aytadi. Doston sujetining barcha xalqalarida Go‘ro‘g‘li ishtirok etadi. Eposning qahramonlik tabiatiga muvofiq undagi sujetni harakatlantirib turuvchi asosiy konflikt xarakterlararo to‘qnashuv asar boshida namoyon bo‘lmaydi. Epik tafakkur va mifopoetik talqin tabiatiga ko‘ra qahramon “alp” o‘zi to‘g‘ri deb bilgan ishni qilishi, shunga mos voqealar qatorining paydo bo‘lishi epos uchun noto‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Go‘ro‘g‘li Avazxonne olib kelish uchun yolg‘iz o‘zi yo‘lga chiqadi. Undan oldin Hasanxon o‘g‘illik burchimni bajaray, deb otasidan qirq yigitini so‘rab yo‘lga otlanadi. Asqar tog‘ining ustiga chiqib “badbaxt beli”ni tumanli ko‘rgan qirq yigit va Hasanxon orqasiga qaytib keladi. Yo‘lga chiqqan Go‘ro‘g‘li Asqar tog‘ida, u yerdagi yaylovda qator sarguzashtlarni boshidan kechiradi.

Yo‘lga chiqqan Go‘ro‘g‘lining ko‘ngliga manmanlik kelib, katta ketadi. Shu sababdan Asqar tog‘ida “badbaxt beli”da turli to‘siq va g‘ovlarga duch keladi. Shunda Go‘ro‘g‘li Xizr bobosiga sig‘inib iltijo qiladi:

Go‘ro‘g‘li iltijo amalini bajargach uning oldidan Xizr Ilyos, G‘ovsul-G‘iyos, o‘n bir imom, qirq chilton chiqadi. Epik voqelikda bunday hodisaning sodir bo‘lishi sujetning sarguzashtlilik tabiatini yanada oshirgan. Katta ketgan Go‘ro‘g‘li tovbaga kelib o‘n bir imom va chiltonlarning piri Xizr Ilyosdan uzr so‘rab, maqsadini ayon qilib madad so‘raydi.

Aynan fotiha berish voqeasidan keyin “Badbaxt beli” dagi bulutlar tarqalib Go‘ro‘g‘lining ishi yurishaveradi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi Xizr bobo, eranlar va chiltonlar “Avazxon” dostonida “Alp” yoki o‘zлari tanlagan qahramonga yana bir bor fotiha beradilar. Aslida bunday motivlarning katta epik matnlarda paydo bo‘lishiga xalq og‘zaki ijodidagi qadimgi mif va afsonalar sabab bo‘lgan. Shuningdek, baxshilarning improvizatorlik qobiliyati ham yuksak rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, dostonning o‘zbekcha variantida Avazxonning onasi turkmanlik deyilsa, qoraqalpoqcha variantida Xorazmdan ekanligi keltirib o‘tilgan. Ikkala variantida ham Avazxonne onasini ismi Guloyim deb keltirilgan.

Aslida Go‘ro‘g‘lining oldidan Xizr Ilyos, eran va chiltonlarning chiqishi motivi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi qahramonning “qayta tirilishi” yoki “alp”lik maqomini olish motivi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki, mazkur obrazlar turkum dostonlarining dastlabki variantlaridan boshlab keyingi davrlarda paydo bo‘lgan versiya va variantlarida ham “Homiy” obraz sifatida Go‘ro‘g‘lini qo‘llab kelganligini kuzatishimiz mumkin. Dostonning o‘zbek qadim versiyalarida:



- “Juda yaxshi bo‘ldi-da, - deyishib, eranlar maslahatlashib, Ravshanni yotgan joyida behush etdilar. Qornini yorib, ichidagi borini yuvib, tozalab ichini nurga to‘ldirib, qayta joy-joyiga qo‘yib barcha eranlar fotiha berdilar. Go‘ro‘g‘li aksa urib o‘rnidan turdi. Sharobu taxurdan qirq jom berishdi, buni ichib mast bo‘lib yana yiqildi. Eranlar yana fotiha qilishdi. Yana aksa urib o‘rnidan turdi(“Go‘ro‘g‘li” dostonlari. “Avazxon” dostoni. 4 jildlik, 46-bet).

Ushbu motiv butun “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining sujetini dinamik harakatga keltirib turgan asos hisoblanadi. Qahramonning butun “alp”lik kuch-qudrati ham shunda. “Avazxon” dostonining o‘zbekcha variantida Xizr Ilyos va chiltonlardan yana bir bora fotiha olgan Go‘ro‘g‘li Xunxorshohning o‘n ikki minglik qo‘smini bilan yakka o‘zi jang qilib g‘alaba qozonadi. “Homiylardan fotiha olgan Go‘ro‘g‘li voqealar rivoji davomida bir nechta sinovlardan o‘tadi. Bular jang, hiyla, kurash kabi motivlarda o‘z aksini topgan. Dostonning qoraqalpoqcha variantida mazkur motivlar uchramaydi. Go‘ro‘g‘li Bulduruq qassobdan Avazxonni olib qochib Chambilga yetib kelish jarayoni bir qancha voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda Go‘ro‘g‘li qahramonlik ko‘rsatib, tanlangan eran ekanligini namoyon qiladi. Dostonning ikkala variantida sujet hodisasini kuzatish natijasida aytish mumkin-ki, qoraqalpoqchasi variantida xronikali sujet elementlari, o‘zbekcha variantida konsentrik sujet elementlari ko‘proq uchraydi. Shuning uchun ham o‘zbekcha variantida voqealar shiddatliroq, dramatik ruhda namoyon bo‘lgan. Shunday bo‘lsada, ikkala dostonning ham she’riy matnlarida nutqning yoki ruhiy kechinmalarning assotsiativ tabiatini yaqqol ko‘rinib turadi. Ya’ni she’riy matnlarda qahramonlarning faqat o‘zigagina ayon bo‘lgan “ichki harakat”lari yashiringan bo‘ladi.

Dostonning o‘zbekcha variantida Chambilga notanish baxshining kelishi, Go‘ro‘g‘lining baxshidan Avazxon haqida xabar topishi, Hasanxonning qirq yigit bilan Asqar tog‘idan qaytib kelishi, Go‘ro‘g‘lining Asqar tog‘ida Xizr Ilyosni, o‘n bir imom va chiltonlarni uchratishi, uning cho‘ponlarni aldab qo‘ylarini olib ketishi, Bulduruq qassobni uyiga Qo‘ng‘irboy bo‘lib borishi, Avazxonni olib qochishi, Xunxorshohning o‘n ikki ming qo‘smini bilan jang qilishi, mast bo‘lib hiyla bilan Bektosh arabga aldanishi, Bektosh arab bilan do‘st bo‘lishi, Bektosh arabning Do‘samon tomonidan o‘ldirilishi, Go‘ro‘g‘lining Bektosh arab jasadini Oqrabotga olib borishi va Avazxonni olib Chambilga qaytishi singari voqealar silsilasi matn sujetining xalqalarini tashkil etadi. Doston nomi “Avazxon” bo‘lgani bilan sujet markazida Go‘ro‘g‘li bosh qahramon bo‘lib, Avazxonning Xunxordan olib kelinishi voqealari epos mazmunini tashkil etgan. Mazkur mazmun esa “Avazxonning galtirilishi” dostonining epik voqeligiga hamohang keladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. “O’zbekiston”, Toshkent – 2002.
2. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari. “Avazxon” dostoni. 4 jildlik. “Yozuvchi”, Toshkent, 1997.
3. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari. “Rayhon arab” dostoni. “Fan”, Toshkent, 1994.
4. Qaraqalpaq folklori. “Awezzan” dostoni. 27-42 tomlar. “Ilim”, Nokis, 2012.
5. Qaraqalpaq folklori. “Arep rayxan” dostoni. 27-42 tomlar. “Ilim”, Nokis, 2012.

